

“Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati
yagona muassisining
QARORI

2023-yil 26-oktabr

6-sonli

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-iyuldagi “Toshkent shahrini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-112-son Farmoni qabul qilingan va ushbu Farmonga asosan Toshkent shahri hokimligi (Toshkent shahar hokimiyati) “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining yagona muassisi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonuni talablari inobatga olinib, mazkur qaror quyidagi masala yuzasidan qabul qilindi.

KUN TARTIBI:

1. “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruv raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi tomonidan amalga oshirgan xarajatlari o‘rnini qoplash uchun kompensatsiya qilish.

Kun tartibidagi masala yuzasidan, quyidagilar qayd etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-fevraldagi 66-son qarori bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” Nizom talablariga muvofiq “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati ta’sis etilishi 2023-yil 23-avgustda va ustav bo‘yicha manzili 2023-yil 31-avgustda Toshkent shahar Chilonzor tumani davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

“Qimmatli qog‘ozlar emissiyasi va emissiyaviy qimmatli qog‘ozlar chiqarilishlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish qoidalari”ra (ro‘yxat raqami 2000, 2009 yil 30 avgust) muvofiq “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining birlamchi chiqarilishi 2023-yil 29-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Boshqaruv raisi v.v.b. X.Usmanov tomonidan “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishida 781 700 so‘m va birlamchi aksiyalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishida 11 650 000 so‘m, jami 12 431 700 so‘m yig‘imlar to‘lovi amalga oshirilgan va uning ushbu yig‘imlarni to‘lashga amalga oshirgan xarajatlari o‘rnini qoplash uchun kompensatsiya qilinishi bildirildi.

**“Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati yagona muassisi
kun tartibidagi masala yuzasidan**

QAROR QILDI:

1. Boshqaruv raisi v.v.b. X.Usmanov tomonidan “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishida 781 700 so‘m va birlamichi aksiyalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishida 11 650 000 so‘m, jami 12 431 700 so‘m amalga oshirgan xarajatlari o‘rnini qoplash uchun “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati mablag‘lari hisobidan kompensatsiya qilinsin.

Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni o‘z zimnamda qoldiraman.



Yagona muassis
nomidan
Toshkent shahar hokimi
vazifasini bajaruvchi

Sh.Umurzakov


KELISHILGAN:

Toshkent shahar hokimining
birinchi o'rinbosari



X.Shakirov

Toshkent shahar hokimining
o'rinbosari



Sh.Raxmanov

